

**O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi va tizim tashkilotlari rahbarlari
tomonidan korrupsiyaning oldini olish, xodimlar va jamoatchilik o'rtasida huquqiy
ong va ma'rifatni oshirishga qaratilgan yig'ilish
BAYONI**

Samarqand shahar

2025-yil 25-noyabr

Raislik qiluvchi: A.Rasulov - O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi matbuot xizmati rahbari,
Q.Rahimov - Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i,
Sh.Alimov - O'zbekiston ilmiy sinov va sifat nazorati markazi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i,
M.Azimov - O'zbekiston milliy metrologiya instituti direktori o'rinbosari.

Ishtirok etganlar: Texnik jihatdan tartibga solish nazorat inspeksiyasi, "O'zTest" DM hamda "O'zMMI" DM Samarqand hududiy filiali xodimlari.

KUN TARTIBI

Korrupsiyaga qarshi kurash – tizim taraqqiyotining muhim garovi

Yig'ilishda O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi matbuot xizmati rahbari A.Rasulov so'zga chiqib, korrupsiya, poraxo'rlik va ta'magirlik kabi illatlarni oldini olish, qonunbuzarlik holatlariga, mansab soxtakorligi, pora olish va berishda vositachilik qilish, tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilish holatlariga yo'l qo'ymaslik borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risida, jumladan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbir va me'yorlar belgilanganligi, mazkur qonunni har bir moddasini hayotimizga tadbiiq etishlik zarurligi, sodda qilib aytanda, korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanligini tushunish, eng muhimi unga qarshi kurashish har bir kishining fuqarolik burchi ekanligi ta'kidlab, so'zni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Q.Rahimov berdi.

Xodimlar o'rtasida sog'lom muhitni yaratish, tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish jarayonida poraxo'rlik, ta'magirlik kabi illatlarga yo'l qo'ymaslik va shu kabi jinoyatlarni oldini olish, mijozlarga xizmat ko'rsatish vaqtida mansabga sovuqqonlik bilan qarash, sonsalorlik, to'rachilik va boshqa noqonuniy harakatlarga yo'l qo'ymaslik, ularning murojaat va arizalarini o'z vaqtida holisona hal qilib berish zarurligi, soha xodimlarining etika estetika va odob axloq qoidalari talablariga qat'iy rioya etishliklari to'g'risida, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Q.Rahimov o'z fikrlarini bildirib o'tdi.

Shuningdek, "O'zTest" DM korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i Sh.Alimov hamda "O'zMMI" DM direktor o'rinbosari M.Azimov so'zga chiqib har

bir xodim vatanparvar, o'z vataniga fidoiy fuqaro bo'lishi, davlatimiz xavfsizligi va tinchligini mustahkamlashda o'z hissasini qo'shishi lozimligi to'g'risida gapirib o'tib, korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik va bu holatlar O'zR JKning tegishli moddalarida jinoiy javobgarlik belgilanganligi aytib o'tishdi.

Xodimlar ish jarayonida tadbirkorlar va boshqa mijozlarga xolisona xizmat ko'rsatishi, noqonuniy moddiy manfaatdor bo'lmasligi, mansab soxtakorligi, pora olish va berishda vositachilik qilish, tovlamachilik yo'li bilan haq berishni talab qilish holatlariga yo'l qo'ymasligi haqida barcha xodimlarga to'liq tushunchalar berib, bu borada bo'lim boshliqlariga qo'l ostida ishlayotgan xodimlarni ustidan doimiy nazorat olib borishlik, ular bilan sistematik ravishda bu mavzuda suhbatlar o'tkazilib boorish to'g'risida tavsiyalar berildi.

Yig'ilish davomida mutaxassislar o'z fikr-mulohazalari, takliflari va tajribalari bilan o'rtoqlashdilar.

Kun tartibiga kiritilgan masala atroflicha muhokama qilinib, yig'ilish

QAROR QILADI:


1. Samarqand hududiy filialining har bir bo'lim boshliqlariga qo'l ostidagi xodimlari orasida "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzusida tushuntirish olib borib, ular tomonidan faqat vakolat doirasida xizmat vazifasiga taa'luqli ishlarni amalga oshirilishini nazoratga olish, jinoyat sodir qilish omillarini bartaraf qilish yuzasidan qat'iy chora-tadbirlar amalga oshirish ishlarini kuchaytirish vazifasi yuklatilsin.

2. Samarqand hududiy filiali xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida biron-bir shaxs o'zlariga murojaat etganligiga doir barcha holatlar to'g'risida, shuningdek boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan har qanday faktlar haqida o'z rahbarlarini xabardor qilishlik vazifalari yuklatilsin.

3. Mazkur bayon TJTSA Nazorat inspeksiyasi (M.Saidov), "O'zTest" DM (K.Murodov) hamda "O'zMMI" DM (L.Burxonov) Samarqand hududiy filiali boshliqlari zimmlariga yuklatilsin.

"TASDIQLAYMAN"

TJTSA Nazorat inspeksiyasi
Samarqand filiali boshlig'i

 M.Saidov

"TASDIQLAYMAN"

"O'zTest" DM Samarqand
filiali boshlig'i

 K.Muradov

"TASDIQLAYMAN"

"O'zMMI" DM Samarqand
filiali boshlig'i

 L.Burxonov